


## FARG‘ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

\* tezkor ma’lumot

(2020-yil yanvar-fevral)

2020-yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko‘ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 180,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 84,0 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 73,2 mln. AQSh dollarga (14,4 % ga o‘sdi) va import hajmi 106,8 mln. AQSh dollariga (2019 yilning mos davriga nisbatan -29 % ga pasaydi) yetdi. Tashqi savdo saldos -33,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

### \*Farg‘ona viloyati tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)





So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

## 2019-2020-yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko‘rsatkichlari dinamikasi

(mln. AQSh dollari)

2019-yil yanvar-fevral

2020-yil yanvar-fevral



2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi ham 2019-yilning yanvar-fevral oylarining mos davriga nisbatan deyarli o‘zgarishsiz qolmoqda.

### Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % da
Xitoy	51,5	11,7	39,8	28,6
Rossiya	33,7	13,5	20,2	18,7
Qozog‘iston	25,6	4,5	21,1	14,2
Qirg‘iziston	19,7	14,7	4,9	10,9
Turkiya	16,4	9,0	7,4	9,1
Koreya Respublikasi	5,3	2,1	3,2	2,9
Misir	3,6	3,6	0,0	1,9
Polsha	2,7	2,7	0,06	1,5

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % da
Tojikiston	2,9	1,5	1,4	1,6
Ukraina	1,6	1,2	0,4	0,9

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,4 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78,2 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yil shu davrga nisbatan 8,0 % pasaygan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 52,6 ga yetdi.


## **EKSPORT.**

2020-yil yanvar-fevral oyida eksport hajmi 73,2 mln. AQSh dollarga (2019-yilning shu davriga nisbatan 14,4 % ga o'sdi) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,4 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (19,5 %), paxta tolasi (0,5%), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (2,0 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (2,7 %), qora va rangli metallar (0,2 %), mashina va uskynalar (0,2 %), shuningdek xizmatlar eksporti (2,3 %) va boshqalar (72,6 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollari)

■ 2019-yil yanvar-fevral

■ 2020-yil yanvar-fevral




## Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, %da	mln. AQSh doll.	2019- ilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, % da

<b>Eksport</b>	<b>73,2</b>	<b>114,4</b>	<b>100</b>	<b>36,2</b>	<b>152,4</b>	<b>100</b>	<b>37,0</b>	<b>91,1</b>	<b>100</b>
<b>Paxta tolasi</b>	0,4	100	0,5	0,0	0,0	0,0	0,4	100	0,5

<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	14,2	104,5	19,5	12,3	170,6	34,2	1,9	29,5	5,1
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	2,0	321,2	2,7	2,0	3,3M	5,4	0,0	0,0	0,1
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	1,4	72,7	2,0	0,5	44,2	1,4	0,9	112,3	2,5
<b>Qora va rangli metallar</b>	0,1	15 M	0,2	0,1	11,7 M	0,3	0,3	100	0,1
<b>Mashina va asbob -uskunalar</b>	0,2	240,6	0,2	0,2	3,5M	0,4	0,0	0,0	0,0
<b>Xizmatlar</b>	1,7	135,1	2,3	1,2	106,7	3,2	0,5	3,1 M	1,5
<b>Boshqalar</b>	53,2	114,6	72,6	19,9	146,6	55,1	33,3	101,3	90,7

### Tovar va xizmatlar eksportining o‘shish sur‘atlari (2019-yilga nisbatan,% da)




Shuningdek, tovar eksporti o‘shish sur‘atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-fevral oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 14,4 % ga osdi.


Xizmatlar eksporti hajmi 1,7 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,3 % tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan (0,4 mln. AQSh dollar ko‘paydi) 135,1 % o‘sganganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, sog‘liqni saqlash bo‘yicha xizmatlar hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

## 2019-2020-yanvar-fevral oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti ( mln. AQSh dollari)



## Viloyat eksportida asosiy yirik hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-fevral)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 60,6 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

## Farg‘ona viloyatining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O‘rni	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Qirg‘iziston	3,9	14,7	6,2	20,1	4	1
Rossiya	13,7	13,5	21,5	18,4	2	2
Xitoy	16,1	11,7	25,2	16,0	1	3
Turkiya	10,8	9,0	16,9	12,3	3	4
Qozog‘iston	2,0	4,5	3,2	6,2	9	5
Koreya Respublikasi	0,9	2,1	1,4	2,8	12	6
Polsha	3,5	2,7	5,4	3,6	5	7
Misr	1,1	3,6	1,8	4,9	11	8
Afg‘oniston	0,3	2,6	0,4	3,6	13	9
Ukraina	2,0	1,3	3,1	1,7	8	10
Marokko	0,2	0,9	0,3	1,1	15	11
Tojikiston	1,7	1,5	2,6	2,1	10	12
Bangladesh	3,5	0,4	5,5	0,5	6	13

Belorus	0,3	0,3	0,4	0,4	14	16
Belgiya	0,1	0,4	0,2	0,5	16	15
Vetnam	2,1	0,5	3,3	0,6	7	14

### Farg‘ona viloyatining ayrim davlatlar bilan eksport tarkibi (yanvar-fevral)

( mln. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Qirg‘iziston Respublikasi	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
<b>Jami eksport</b>	<b>13,8</b>	<b>13,5</b>	<b>3,9</b>	<b>14,7</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	0,9	2,8	2,9	5,3
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar	0,02	0,0	0,4	1,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,5	0,0	0,2	0,2
Qora va rangli metallar			0,002	0,04
Mashina va uskunalar	0,02	0,1	0,009	0,0
Xizmatlar	1,1	1,1	0,02	0,03
Boshqalar	11,3	9,4	0,4	8,1

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2020-yilning yanvar-fevral oylarida jami 20,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 12,3 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o‘shish sur‘ati 6,6% o‘sdi). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2020-yilning yanvar-fevral oylarida 12,6 ming tonnadan ko‘proq sabzavotlar 4,2 mln. AQSh dollariga yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 ming tonnaga ko‘p miqdorda eksport qilingan.





Shuningdek, 4,7 ming tonna meva va rezavorlar 5,7 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 ming tonnaga ko‘pdir.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o‘tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-fevral oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 12,3 mln. AQSh dollariga yetdi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6% ga o‘tdi).


## Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2019-yil yanvar-fevral			2020-yil yanvar-fevral		
	Ming. tonna	Ming. AQSh doll.	Ulushi, % da	Ming. tonna	Ming. AQSh doll.	Ulushi, % da
 Qozog‘iston	4,6	1,4	0,02	8,0	3,9	0,03
 Rossiya Federatsiyasi	1,1	0,8	0,01	4,1	2,7	0,02
 Qirg‘iziston	3,3	2,8	0,04	7,3	5,1	0,04
 Tojikiston	0,3	0,3	0,0	0,04	0,03	0,0
 Ukraina	4,7	1,5	0,02	0,3	0,2	0,002
 Xitoy XR	0,02	0,02	0,0	0,02	0,02	0,0

## IMPORT

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 106,8 mln. AQSh dollariga (2019-yilning mos davriga nisbatan -29,0 % pasaydi) teng bo‘ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (33,3 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (17,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (13,9 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (10,4 %), qora va rangli metall (8,1 %), import xizmati (0,4 %) hamda boshqalar (16,4 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollari)




## Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Import</b>	<b>106,8</b>	<b>71,0</b>	<b>100</b>	<b>49,2</b>	<b>57,5</b>	<b>100</b>	<b>57,6</b>	<b>88,8</b>	<b>100</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	14,8	45,8	13,9	12,2	41,4	24,7	2,6	87,6	4,6
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	11,1	67,7	10,4	3,2	67,4	6,6	7,9	67,8	13,6
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	18,7	79,3	17,5	18,6	79,2	37,8	0,1	107,4	0,1
<b>Qora va rangli metallar</b>	8,8	81,7	8,1	5,3	77,5	10,8	3,5	87,5	6,0
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	35,5	86,5	33,3	0,7	30,8	1,5	34,8	89,9	60,5
<b>Xizmatlar</b>	0,4	47,7	0,4	0,0	0,0	0,0	0,4	48,4	0,7
<b>Boshqalar</b>	17,5	69,0	16,4	9,2	49,3	18,6	8,3	123,3	14,5

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o‘shish sur‘atlari bo‘yicha quyida keltirilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar oyi davomida eng past o‘shish sur‘atlari kuzatilgan.

## Tovarlar va xizmatlar importining o‘shish sur‘atlari dinamikasi (2019-yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o‘shish sur‘atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovar va xizmatlar 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 29,0 % ga kamaygan.

### Farg‘ona viloyatiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi


Davlat nomi	Mln. AQSh dollari.		Ulushi, % da		O‘rni	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
<b>Xitoy</b>	15,1	18,2	19,5	31,1	2	1
<b>Qozog‘iston</b>	23,3	14,9	30,2	25,5	1	2
<b>Rossiya</b>	17,0	10,5	22,0	18,0	3	3
<b>Turkiya</b>	1,8	4,5	2,3	7,6	7	4
<b>Qirg‘iziston</b>	1,1	3,0	1,5	5,2	8	5
<b>Koreya</b>	2,3	2,3	3,0	3,9	6	6
<b>Tojikiston</b>	1,3	0,8	1,7	1,4	10	7
<b>Ekvador</b>	0,04	0,6	0,1	1,0	12	8

<b>Gonkong</b>	0,04	0,5	0,1	1,0	13	9
<b>Germaniya</b>	3,3	0,3	4,3	0,5	4	10
<b>Eron</b>	0,3	0,3	0,4	0,5	11	11
<b>Latviya</b>	2,6	0,2	3,3	0,4	5	12
<b>Belorus</b>	0,4	0,1	0,5	0,3	9	13

### Xizmatlar importi tarkibi, (%) da 2020-yil yanvar-fevral


Xizmatlar importi hajmi 0,4 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,4 % ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, moliya, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo‘ldi.

### 2019-2020-yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi ( mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta’kidlab o‘tish kerakki, 2020-yilning yanvar-fevral oylari davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o‘tgan 2019 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 43,6 mln. AQSh dollarga kam import qilindi va 106,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy  
hamkor davlatlarning tovar va xizmatlar hajmi  
2020-yil yanvar-fevral  
( mln. AQSh dollari)**



2020-yilning yanvar-fevral oyida viloyatimizga 52 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmi amalga oshirilgan. Shulardan 9 ta eng yirik bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Germaniya, Gonkong, Koreya Respublikasi va Tojikiston Respublikasi, hamkor davlatlaridan jami import hajmi 99,7 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 98,8 % ni tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo‘limi  
Tel.:73-249-87-18**